

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

REFERAT

Mavzu: Samarqand tarixi



Bajardi: Karimova Sh.

Tekshirdi: Eshov B.

Toshkent – 2014

Tarixi. Samarqand jahonning eng ko'hna shaharlaridan biri bo'lib, taxminan 2750 yillik tarixga ega. Hozirgi Samarqand o'rnida miloddan avvalgi IV asrdan milodiy VI asrgacha So'g'd davlati poytaxti Maroqanda shahri mavjud bo'lgan. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashagan. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf (I asr) ning yozishicha, Samarqand qal'asi devorining aylanasi taxminan 10,5 km bo'lgan. Miloddan avvalgi 329 yili Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari Samarqandni vayron qilgan.

VI asrda Samarqand **Turk xoqonligi** tarkibiga kirgan va mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. VII asr boshidan Zarafshon vodiysi Samarqand hokimligi qo'l ostiga o'tgan.

Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari bilan savdo-sotiq qilgan. Qutayba boshchiligidagi arab qo'shinlari 712 yili Samarqandni egallagan. Qo'zg'olon ko'targan shahar aholisining bir qismi qirib tashlangan, bir qismi shahardan quvib chiqarilgan, ular o'rniga arablar kelgan. VIII asrning 70-80 yillarida arablar istilosiga qarshi **Muqanna** boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan.

IX asrning 20 yillaridan boshlab Samarqand – **Somoniylar davlatining** poytaxti. 887 yildan birinchi marta somoniylarning kumush tangalari Samarqandda zarb qilina boshlandi. Somoniylar poytaxti Buxoroga ko'chirilgandan so'ng ham Samarqand Movarounnahrning eng yirik hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo'lib qoldi. XI asrdan Samarqand **Qoraxoniylar davlati** tarkibiga kirgan. 1089 va 1130 yillari Samarqandni **Saljuqiylar** bosib olgan. XII asrdan **Qoraxitoylarga** tobe bo'lgan. 1210 yildan **Muhammad Xorazmshoh** davlati tarkibida bo'lgan. 1212 yili Samarqandliklar Xorazmshohga qarshi qo'zg'olon ko'targan. 1220 yili **Chingizxon** qo'shinlari Samarqandga bostirib kirib, shaharga o't qo'ygan va aholining ko'p qismini qirgan, tirik qolgani shahardan chiqib ketgan. Bir necha yildan so'ng Samarqand qayta tiklana boshlagan. XIII asrning 2-yarmida Samarqandga kelgan venetsiyalik sayyoh **Marko Polo** "**Sonmarkon katta va mashhur shahar**" deb yozgan. Mo'g'ullar davrida **Chig'atoy ulusiga** qaragan.

XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda mo'g'ullarga qarshi xalq harakatlari bo'lib o'tdi. XIV asr oxiri va XV asrda Samarqandning iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayoti ancha yuksaldi. **Amir Temur** imperiyasining poytaxti sifatida Samarqand jahonga mashhur bo'ldi. Bu davrda Samarqand ko'pgina Sharq va Yevropa davlatlari bilan savdo aloqalari o'rnatgan. Amir Temur vafotidan so'ng uning davlati ikkiga bo'lindi. Hirotga **Shohruh Mirzo**, Samarqandga **Mirzo Ulug'bek** sulton qilib tayinlandi. Ulug'bek davrida Samarqandda ulkan qurilishlar avj oldi. Qo'shni davlatlar bilan aloqalar yanada kuchaydi. XV asr oxirida Samarqandni **Zahiriddin Muhammad Bobir** egalladi. 1500 yili **Shayboniyxon** Samarqandni deyarli urushsiz bosib oldi. 1576 yilgacha Samarqand **Shayboniylar davlatining** poytaxti bo'lib turdi. XVII asrning birinchi yarmida olchin urug'idan chiqqan o'zbek harbiy-feodal zodagonlarining yirik vakili **Yalangto'sh Bahodir** Samarqand hokimi bo'lgan. XVII asrning birinchi yarmida Samarqand **Ashtarxoniylar**, 1740-1747-yillarda **Nodirshoh** qo'lida bo'lgan. 1758-1868 yillarida esa Samarqand **Buxoro amirligi** tarkibiga kirgan.

1868 yil 2 mayda Samarqandni podsho qo'shinlari bosib oldi. Keyinchalik Samarqand va Kattaqo'rg'on bekliklari birlashtirilib, Zarafshon okrugi tuzildi. So'ngra unga Panjakent va Zarafshon vodiysi yuqorisidagi tog'li tumanlar qo'shildi. 1886 yili



Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Samarqand shahri uning ma'muriy va savdo markaziga aylandi. Shu vaqtdan boshlab shaharda yevropacha tipdagi imoratlar qurila boshlandi. XX asrning boshlariga kelib, Samarqanddagi korxonalarda ishchilar soni ko'paydi. 1924-1930-yillarda Samarqand O'zbekiston

poytaxti bo'lib turdi. **Fani.** Samarqand XIV-XV asrlarda Mavorounnahrda ilmiy tafakkurning markazi bo'lgan. Ayniqsa, Ulug'bek davrida fan taraqqiy etdi. Ulug'bek Samarqandda astronomlar maktabiga asos soldi, madrasa va rasadxona qurdi. Ulug'bek atrofida butun ilmiy maktab vujudga keldi. Bu maktabdan **G'iyosiddin Jamshid Koshiy**, **Qozizoda Rumiy**, **Ali Qushchi** kabi mashhur olimlar yetishib chiqqan. XVI-XVII asrlarda Samarqandda **Miram Chalabiy**, **Mullo Abdulali Nazmuddin ibn**

Muhammad ibn Husayn Birichandiy, Amir Akbar Samarqandiy, Do'stiy Samarqandiy, Yormuhammad ibn Xudoydod Muhammad Samarqandiy, Koshufiy Samarqandiy, Mavlono Miri Kalon Samarqandiy, Mir Jamoliddin Xorazmiy, Muhammad ibn Abdulloh Husayniy Samarqandiy Oshiq Mavlono Abdulxayr Samarqandiy, Mavlono Sa'dullo Sog'ardin Samarqandiy Muhammad Samarqandiy, Sirojiddin Muhammad Samarqandiy, Shohiy Xo'ja Amiroqon Samarqandiy kabi fan va madaniyatning mashhur namoyandalari yashab ijod etgan. Turkiston Rossiyaga qo'shib olingandan keyin Samarqand va butun Zarafshon vodiysining tarixi, tabiati va turmushi yanada batafsil o'rganila boshlandi. XIX asrning 80-90-yillarida *Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdullin, Mirzo Barot Mullo Qosimov, Mirzo Abdurahmon* va boshqalar muhim tadqiqotlar olib bordilar.

Madaniyati. Amaliy va tasviriy san'ati. Samarqanddan topilgan 2 ta *gemma* eng qadimiy tasviriy san'at yodgorligi hisoblanadi. Bularda O'rta Osiyodagi o'troq va ko'chmanchi xalqlarning dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq hayotini aks ettiruvchi tasvirlar mavjud. So'g'd-ellin davriga oid Samarqand san'atida *Iskandar Zulqarnayn* istilosi oqibatlarini o'z aksini topgan. Keyingi davrlarga oid terrakota buyumlari (qadah, kosa, suvdon va boshqalar) orasida ayol yoki yigit obrazini real ifodalashga qaratilgan haykalchalar diqqatga sazovor. V-VII asrlarga kelib hunarmandchilik, devoriy rassomlik ancha taraqqiy etdi. Temur va temuriylar davrida to'qimachilik va ko'ncilik, muqovasozlik va hattotlik, musavvirlik, badiiy o'ymakorlik va zargarlik, zardo'zlik, san'at va hunarmandchilikning turli tarmoqlari tez rivojlandi.

Adabiyoti. Samarqandda XII asrdayoq adabiyot nazariyasi, tilshunoslikka oid monumental asarlar yaratilganligi ma'lum. Keyinchalik *Yusuf Sakkokiy Xorazmiyning "Miftoh al-ulum"* . *Sa'daddin Taftazoniyning "Muxtasar al-maoni"* asari, *Said Sharif Jurjoniyni* poetikaga oid risolalari va badiiy asarlar yaratildi. Bularning hammasi XV asrga kelib Samarqandda adabiyotshunoslik, tilshunoslik va badiiy adabiyotning yuksalishiga olib keldi. *Salohiddin Muso Qozizoda Rumiyni* "Sharhi pura dar", "Taftazoniy", *Ali Qushchi Samarqandiyning "Sharhi "Muftoh al-ulum"i Taftazoniy"*, *Abulqosim Samarqandiyning "Risola al-istiorat", "Risola al-istiorat as-*

Samarqandiy” kabi asarlari yozildi. *Davlatshoh ibn Baxtishodning “Tazkirat ush-shuaro”* antologiyasida 160 shoir haqida ma’lumot berildi. Bu asarlar *Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy* ijodiga ijobiy ta’sir qildi.

Temur va temuriylar davrida o’zbek va fors-tojik tillarida *Mavlono Sakkokiy Bisotiy Samarqandiy, Javhariy Xo’ja So’g’diy Samarqandiy, Mirzabek, Z.Vosifiy, Riyoziy* kabi shoirlar yuksak adabiy-badiiy asarlar yaratdilar. Samarqand ilmiy va adabiy hayotning markaziga aylandi. Bu yerga Movarounnaurning ko’p joylaridan – Xorazmdan *Zamaxshariy* va *Abdulqodir Jurjoniy*, Badaxshondan *Muhammad Badaxshoniy*, Buxorodan *Hayoliy* va *Ismat Buxoriy*, Toshkentdan *A’loyi Shoshiy*, Sherozdan *Said Qo’raza*, Hirotdan *Abdurahmon Jomiy, Suhayliy, Alisher Navoiy* kabi shoir va olimlar kelib yashab ijod qilganlar.

XVIII-XIX asrlarda Samarqandda adabiy-badiiy tafakkur rivojiga va erkin fikrning keng taraqqiy etishiga muhim hissa qo’shgan shoirlardan *Solih Samarqandiy, Ne’matullo ibn Yoqub Samarqandiy, Faqiriy Zulfiqor Samarqandiy, Junaydullo Mahmud Hoziq, Abdullo Jabbor Nayman Samarqandiy, Mir Abdulhay Samarqandiy, Muqimxon Samarqandiy, Mirzo Sharif Dabiri Samarqandiy* va boshqalarning ijodi alohida ajralib turadi.